

Qishloq xo‘jaligini iqtisodiy barqaror rivojlanishida innovatsion texnologiyalarni o‘rni

No‘monjonova Shoxsanam Muzaffar qizi

Guliston Davlat Universiteti talabasi

Email: nomonjonovashohsanam221@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligini iqtisodiy barqaror rivojlanishida innovatsion texnologiyalarni o‘rni ko‘rib chiqilgan. Qishloq xo‘jaligi sohasidagi mavjud yirik tarmoqlar tahlil qilingan. Innovatsiyalarni qishloq xo‘jaligi sohasida keng targ‘ib etishdagi ma‘lum bir nechta muammolar aniqlangan va ularni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatmalar va tavsiyalar aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: eksport qiymati, innovatsion texnologiyalar, ishlab chiqarish samaradorligi, raqamli texnologiyalar, intellektual mulk, innovatsion faollik darajasi.

Kirish

Qishloq xo‘jaligi sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim va ajralmas tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O‘z navbatida bu sohaning rivojlanishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga sezilarli ta‘sir qiladi. Ya‘ni bu soha orqali yurtimiz aholisi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlanadi, asosan qishloq aholisi ish bilan ta‘minlanadi va ularning daromadlarini belgilab beradi, shuningdek, eksport qiymatida ham aks etadi.

Respublika miqyosida qishloq xo‘jaligi sohasida uchta yirik tarmoq mavjud. Bularga o‘simlikchilik, chorvachilik va bog‘dorchilik sohalari kiradi. O‘simlikchilik ushbu sohalarda ichida eng yirigi hisoblanadi. Ushbu tarmoqlarning rivojlanishida innovatsion texnologiyalarning o‘rni anchagina.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida qishloq xo‘jaligi sohasini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [1].

Avvalgi va jahon tajribalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalarni qishloq xo‘jaligi sohasiga tadbiq etish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, resurslardan oqilona foydalanishga e‘tibor qaratiladi, mahsulotlar sifati oshadi va qishloq



xo'jaligi korxonalarida o'rtasida raqobatbardoshlik kuchayadi. Ayniqsa, bugungi kunda global iqlim o'zgarishlar, suv resurslari taqchilligi, aholi sonining tez sur'atlarda o'sib borayotganligi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi sharoitida innovatsion texnologiyalarni joriy etish qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Innovatsiyalarni qishloq xo'jaligi tarmoqlarida qo'llash orqali iqtisodiy barqaror rivojlanishda texnologiyalarning o'rni baholanadi, mavjud muammolarni aniqlanadi, muammolarga yechimlar taklif qilinadi va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish jarayonlari jadal sur'atlarda amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, ularni joriy etishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari taklif qilingan. Shuningdek, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, intellektual mulkni himoya qilish, kadrlar salohiyatini oshirish masalalari kompleks ravishda o'rganilgan [2; 87-95-b.].

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligida samaradorlik imkoniyatlarini bir necha barobarga oshirish mumkin. Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, IoT (Internet of Things) va katta ma'lumotlar (Big Data) asosidagi yechimlarni joriy etish orqali hosildorlikni 20-25% gacha oshirish, suv resurslarini 30% gacha tejamlir oq ishlatish mumkin [3; 185-b.].

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalar orqali mahsuldorlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlanishi va qishloq aholisi turmush darajasining yaxshilanishi uchun muhim. Buning uchun tomchili sug'orish tizimlarini, issiqxona xo'jaliklari uchun zamonaviy avtomatlashtirish tizimlarini, quyosh energiyasiga asoslangan qishloq xo'jaligi uskunalari, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlashning innovatsion usullari kabi texnologiyalarni taklif etilmoqda. Bu sohada suv tanqisligi, yerlarning sho'rlanishi, eskirgan texnika va uskunalar, malakali kadrlar yetishmasligi, moliyaviy resurslar cheklanganligi va iqlimning tez o'zgarib borayotganligi O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi asosiy muammolar hisoblanadi.



Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi”da qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Strategiyaga muvofiq, 2030 yilgacha qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini kamida 2-3 barobarga oshirish, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini 1,5 barobarga ko‘tarish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini 30 foizdan 80 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan(1-jadval).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi PQ-4486-son “Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [qaroriga](#) muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzurida Suv xo‘jaligi sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi tashkil etilganligi hamda unga suv xo‘jaligi sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish yuklatilganligi suvni tejash uchun olib boriladigan islohotlardan biri hisoblanadi[4].

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish natijasida erishiladigan asosiy ko‘rsatkichlar va indikatorlar[5]

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Asos (2018-y.)	2021-yilga maqsad	2025-yilga maqsad	2030-yilga maqsad
1.	Qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymatning yillik o‘sishi	117,3 trln so‘m (14 mlrd AQSh doll.)	3%	5%	5%
2.	Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ida ish	3 671 300 91 420	2% 3%	1% 4%	1% 5%



	o‘rinlari sonining o‘sishi: Qishloq xo‘jaligi Oziq-ovqat sanoati To‘qimachilik sanoati	140 200	3%	4%	5%
3.	Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti hajmining oshishi	2,3 mlrd AQSh doll.	3,5 mlrd AQSh doll.	10 mlrd AQSh doll.	20 mlrd AQSh doll.
4.	Aholi o‘rtasida to‘yib ovqatlanmaydiganlar ulushi	6,3%	5%	3%	0
5.	Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish (bir nafar ishchiga bir yilda dollarda)	3 960 AQSh doll.	4 300 AQSh doll.	5 200 AQSh doll.	6 500 AQSh doll.
6.	Qishloq xo‘jaligidagi issiqhona gaz chiqindilarini kamaytirish	15 740 gigagramm (2016-yil)	10%	30%	50%

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali 2023 yilda o‘rganilgan fermer xo‘jaliklarida suv resurslari samaradorligi 35-40% ga oshgan, mehnat unumdorligi 25-30% ga ko‘tarilgan va ishlab chiqarish xarajatlari 15-20% ga qisqarganligini ko‘rishimiz mumkin.



Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston qishloq xo'jaligini iqtisodiy barqaror rivojlanishida innovatsion texnologiyalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham muhim ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalar resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va qishloq aholisi turmush darajasini yaxshilash imkonini beradi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish so'nggi 5 yilda sezilarli darajada oshdi, ammo rivojlangan davlatlar darajasiga yetish uchun yana ko'p ishlar qilinishi zarur.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida innovatsion faollik darajasi o'rtacha 25-30% ni tashkil etadi, bu ko'rsatkichni 2030-yilgacha 60-70% ga yetkazish maqsad qilingan. Shuningdek, qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning asosiy to'siqlari moliyaviy resurslar yetishmasligi, kadrlar salohiyatining pastligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash institutlarining zaif rivojlanganligi hisoblanadi. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish va qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu chora-tadbirlar moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, institutsional tuzilmalarni rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va huquqiy asoslarni mustahkamlashni o'z ichiga olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni.
2. Mamatova Z.M. Qishloq xo'jaligi korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2023. – №3. – B. 87-95.
3. Mamadaliyev A.T. O'zbekiston qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish istiqbollari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 185 b.



4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi PQ-4486-son “Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasining 1-ilovasi.



Research Science and
Innovation House

